

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SHAJARASI DAVLATI TARIXI.**

*Qodirova Fotima Maxmud qizi*

*Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar  
fakulteti 232 -tarix guruhi talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur faoliyati va janglari, Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati, Temuriylar shajarasi haqida ma'lumotlar tòplandi.

**Kalit soʻzlari.** "Amir Temur", "Xofizi Abru", "Temur Tuzuklari", "Zubdat -ut-tavarix", "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", "Kesh", "Xoja Ilgor", "Movarounnahr", "Xuroson", "Barlos".

**Kirish.** Buyuk bobolarimizning manaviy olami xususida fikir yuritganda, sohibqiron Amir Temur haqida alohida tòxtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bòlgan bu shaxs buyuk saltanat barpo etib davlat qilish borasida òzidan ham amaliy, ham nazariy, meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din, ma'naviyat rivojiga keng yòl ochdi<sup>1</sup>.

Amir Temur Kesh viloyatidagi Xoja Ilgor qishlogida 1336-yil 9-aprel kuni tavallud topgan. Amir Temurning onasi Takina xotun bòlgan. Amir Temurning otasi Amir Tarağay barlos urugining oqsoqollaridan bòlgan. Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechgan. Amir sohibqiron maktabda òz tengqurlaridan saboqda òzib ketdi. Baloğat yoshiga yetguncha ilm, adab, xat va suhanvorlik kasb etdi. Undagi teran bilim shifoatga payvand bòldi vashundan sòng amirlik mansabini egalladi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup>Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" // Ma'naviyat, 2008, 28b

<sup>2</sup>Xofizi Abrò. "Zubdat -ut-tavarix" asaridan.

1370-yil 11-aprel kuni bòlib òtgan qurultoyda Amir Temurning hukumronligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi. Alloh taolo ularning jamosidan mamnun bòlsin, tutgan ishlariga va qilgan ishlariga muvofiq Movarounnahrdagi butun ahli islom, sipohu raiyat yoxud ulamoyu mashoyiq bòlsin Amir Temurga izzat-ikrom kòrsatib, uni Amir Temur qutbi saltanati Oliy deb atasinlar va uni Amirning qudrati saltanat taxtiga loyiq kòrsinlar<sup>3</sup>. Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan: dargoh va vazirlikdan iborat bòlgan. Tashqi va ichki favqulodda voqealardan voqif etish uchun ming nafar piyoda, ming nafar ot mingan choparlar bòlgan. Amir Temur 35 yil davomida ulkan mamlakatni boshqardi. Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bòysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini qayta qurdirdi. Sohibqiron 1405-yil 18-fevralda Òtror shahrida vafot etdi.

**Adabiyotlar tahlili.** Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi òlkalarni ògillari, nabiralari va xizmat kòrsatgan amirlariga suyurgol tarzida in'om qildi. Amir

Temurning katta ògli Muhammad Jahongir Mirzo bòlib ,u 1356-yil tavallud topgan.Onasi Turmish Oğadir.Umar Shayx Mirzo Amir Temurning ikkinchi ògli bòlib,u 1356-yil tavallud topgan.Uning onasi Tòlin Oğadir.Amir Temurning uchinchi ògli Mironshox Mirzo bòlib ,u 1366 tuğilgan.Shohrux Mirzo Amir Temurning tòrtinchi ògli bòlib ,u 1377- yil tuğilgan .ShohruxMirzoning tòngich ògliga Muhammad Tarağay deb ism beradilar .Keyinchalik bu nom Mirzo Ulugbekga òzgaradi.Mirzo Ulugbek 1394 - yil tavallud topgan.Ulugbek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi.Buyuk Amir Temurning nabirasi benazir allomo Mirzo Ulugbek qarib qirq yil mobaynida Movarounnahr diyoringing donishmand hukumdori sifatida xalqning azaliy orzusi -tinchlik, totuvlik,ilm- fan va madaniyatni taraqiy toptirish yòlida ulkan shijoat va matonat kòrsatdi<sup>4</sup> .

<sup>3</sup>Amir Temur."Temur Tuzuklari" asaridan .

<sup>4</sup>Islom Karimov."Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch"//Ma'naviyat,2008,28 b.

**Tahlil va natijalar.**Amir Temur tarixni chuqur òrgangan,diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarni eng murakkab jihatlarigacha yaxshi òzlashtirgan edi.Sohibqiron davlat boshqaruvi ishlarida islom qonun- qoidalariga asoslangan.Uning Quroni karim va Hadisi shariflarga munosabati samimiy va oliy darajada bòlgan.Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy -siyosiy bòlsada ,barcha tabaqalarning manfaatlari taminlangan.Sohibqiron Amir Temur davlatni boshqarishda òziga xos usul yaratib barpo qilgan davlati bilan dunyoni lol qoldirdi.

**Xulosa.**Turon zamini xususan,Movarounnahr,Xuroson diyori mògillardan aziyat chekayotgan edi.Tarix sahnasiga yosh Amir Temur chiqdi .U Turon zaminini mògillardan tozaladi. Amir Temur davrida madaniyat,san'at,ilm-fan rivojlandi. Temuriylar davrida mohir hunarmandlar,qòli gul ustalar,shoirilar, olimlar,mohir sarkardalar yetishib chiqdi.Turon diyori òz taraqqiyoting chòqisiga chiqdi.

#### **Adabiyotlar ròyhati.**

1. Turğun Fayzievning "Temuriylar shajarasi"asari.Toshkent 1995.
2. Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch "asari .Ma'naviyat 2008.
3. Amir Temurning "Temur Tuzuklari"asari.
4. Xofizi Abròning "Zubdat-ut-tavarix "asari.